



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASI O'RTASIDAGI
IKKI TOMONLAMA ALOQALARNING JORIY HOLATI VA ISTIQBOLLARI**

DSc Abduraxmonov Farxod

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0001-9350-095X

farkhod68@gmail.com, f.abdurakhmonov@tsue.uz

Ismoilov Abduqodir

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0005-6014-4318

ismoilovabduqodir22@gmail.com

Annotatsiya. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosati 2017-yildan buyon savdoni liberallashtirish, diplomatik aloqalarni yaxshilash va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasidagi sa'y-harakatlar tufayli mamlakatimiz global iqtisodiyotda faol ishtirokchiga aylandi. Xususan, iqtisodiy rivojlangan Yevropa Ittifoqi va Germaniya kabi hamkorlar bilan savdo, investitsiya va ijtimoiy sohalarida sezilarli o'sish kuzatildi. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasining Germaniya Federativ Respublikasi bilan olib borgan tashqi iqtisodiy munosabatlar tahlili va savdo-iqtisodiy integratsiyalashuv darajasini tahlil qiladi. O'zbekistonning ikki davlat aloqalarni chuqurlashtirish uchun qanday imkoniyatlari borligini o'rganadi. Yangi imkoniyat va loyihalar haqida batafsil ma'lumot beribgina qolmay, kelajakdagi erishish mumkin bo'lgan natijalarni muhokama qiladi.

Kalit so'zlar: tashqi iqtisodiyot, savdo aylanmasi, iqtisodiy integratsiya, eksport, import, texnologiya, xalqaro aloqalar, diplomatik munosabatlar, investitsiya, mehnat bozori, migratsiya, moliya.

**ТЕКУЩЕЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДВУСТОРОННИХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ
РЕСПУБЛИКОЙ УЗБЕКИСТАН И ФЕДЕРАТИВНОЙ РЕСПУБЛИКОЙ ГЕРМАНИЯ**

DSc Абдурахмонов Фарход

Ташкентский государственный экономический университет

Исмаилов Абдукодир

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. Благодаря усилиям по либерализации внешней торговли, улучшению дипломатических связей и привлечению иностранных инвестиций, проводимым Республикой Узбекистан с 2017 года, страна превратилась в активного участника глобальной экономики. В частности, наблюдается заметный рост сотрудничества в сферах торговли, инвестиций и социального развития с такими экономически развитыми партнёрами, как Европейский союз и Федеративная Республика Германия. Настоящая статья посвящена анализу внешнеэкономических отношений между Республикой Узбекистан и Федеративной Республикой Германия, а также уровню торгово-экономической интеграции между двумя странами. Исследование рассматривает существующие возможности для дальнейшего углубления двустороннего сотрудничества. Кроме того, в статье представлена подробная информация о новых инициативах и проектах, а также обсуждаются потенциальные результаты, которых можно достичь в будущем.

Ключевые слова: внешнеэкономическая деятельность, товарооборот, экономическая интеграция, экспорт, импорт, технологии, международные отношения, дипломатические связи, инвестиции, рынок труда, миграция, финансы.

CURRENT STATE AND PROSPECTS OF BILATERAL RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THE FEDERAL REPUBLIC OF GERMANY

DSc Abdurakhmonov Farkhod

Tashkent State University of Economics

Ismoilov Abdukodir

Tashkent State University of Economics

Abstract. Due to its efforts since 2017 to liberalize foreign trade, enhance diplomatic relations, and attract foreign investment, the Republic of Uzbekistan has become an active participant in the global economy. Notably, there has been significant growth in cooperation with economically developed partners such as the European Union and the Federal Republic of Germany in the areas of trade, investment, and social development. This article analyzes the foreign economic relations between the Republic of Uzbekistan and the Federal Republic of Germany, as well as the level of trade and economic integration between the two countries. The study explores existing opportunities for deepening bilateral cooperation. In addition, the article provides detailed information on new initiatives and projects, and discusses the potential outcomes that could be achieved in the future.

Keywords: foreign economic activity, trade turnover, economic integration, export, import, technology, international relations, diplomatic ties, investment, labor market, migration, finance.

Kirish.

Keyingi yillarda O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar misli ko'rilmagan hamkorlik darajasiga ko'tarildi. Rivojlanayotgan bu hamkorlik O'zbekistonning boy tabiiy resurslari, inson kapitali va Markaziy Osiyodagi, shuningdek, Yevrosiyoda o'ziga xos markaziy joylashuvi geosiyotdagi strategik ahamiyatiga asoslanadi. Tarixan, ikki xalq o'rtasidagi diplomatik munosabatlar O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, 1991-yil 31-dekabrda o'rnatilgan. O'sha vaqtdan buyon ikki tomonlama o'zaro munosabatlar izchil rivojlanib bordi, Germaniya O'zbekistonning asosiy iqtisodiy hamkorlaridan biri, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning yetakchi manbai, mintaqaga ilg'or mahsulot va xizmatlar eksportchisi sifatida namoyon bo'lib kelmoqda (Mamatkulova, 2024).

Germaniyaning O'zbekiston uchun ishonchli hamkor sifatidagi roli bir qancha omillarga asoslangan. E'tiborlisi, Germaniyaning iqtisodiy qudrati va texnologik salohiyati uning jahon yetakchisi sifatidagi mavqeini mustahkamladi. 2023-yilda Germaniya Yaponiyani ortda qoldirib, dunyodagi eng yirik uchinchi iqtisodga aylandi (McCurry, 2024). Ushbu iqtisodiy yuksalish Germaniyaning innovatsiyalar, ilg'or texnologiyalar va barqaror rivojlanish amaliyotlari bo'yicha yetakchi ekanligini namoyon etdi. Germaniya strategiya, innovatsiya va texnologiyalari O'zbekistonning rivojlanish trayektoriyasini tezlashtirish uchun eng samarador usul hisoblanadi. Ikkalla davlat iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishdan manfaatdor davlatlar hisoblanishadi.

2024-yil 15-16-sentabr kunlari Germaniya federal kansleri Olaf Sholsning O'zbekistonga tashrifi ikki tomonlama munosabatlarning muhim bosqichi bo'ldi. Ushbu tashrif hamkorlikning burilish nuqtasi bo'ldi, ikki davlat ham turli sohalarda hamkorlikni chuqurlashtirish bo'yicha hujjatlar imzolashdi. Yashil energetika, axborot texnologiyalari (IT), sog'liqni saqlash, ta'lim, avtomobilsozlik, qurilish, kimyo sanoati, metallurgiya, ilmiy tadqiqotlar, madaniy almashinuv va turizm sohalari hamkorlikning asosiy mavzulari bo'ldi. Ushbu kelishuvlar har ikki davlatning barqaror va o'zaro manfaatli o'sishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha umumiy majburiyatlarini aks ettiradi (Yerzikov, 2024).

Ushbu tadqiqot O'zbekiston - Germaniya munosabatlarining bugungi holatini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, ular hamkorlikning iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy-siyosiy jihatlariga alohida e'tibor qaratishdan iborat. Shuningdek, tadqiqotda investitsiya va savdo

hajmini oshirish bo'yicha potensial yo'nalishlar sanab o'tiladi. Ushbu maqola resurslarga boy O'zbekiston va texnologik rivojlangan Germaniya o'rtasidagi bugungi holatdagi savdo-iqtisodiy bog'liqlikni va ikki tomonlama hamkorlikni oshirish yo'nalishlarini ko'rib o'tadi.

Adabiyotlar sharhi.

Oxirgi tadqiqot va yangiliklar O'zbekistonning rivojlanayotgan tashqi iqtisodiy siyosati ko'plab davlatlar bilan iqtisodiy jarayonlarni tezlashtirdi, xususan, Germaniya Federal Respublikasi bilan ikki tomonlama aloqalar rivojlanib borayotganini ko'rsatmoqda. Mamatqulova (2024) O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsion hamkorlikni tahlil qilib, 2017-yildan amalga oshirilgan strategik islohotlar va erkin savdo siyosati natijasida o'zaro savdo va sarmoya oqimining sezilarli yaxshilanganligi ta'kidlaydi. Bunga parallel ravishda, yirik axborot agentliklari muhim siyosiy bosqichlar haqida ma'lumot beradi. McCurry (2024) Germaniyaning iqtisodiy ko'rsatkichlarining oshishi Yaponiyada iqtisodiy ko'rsatkichlaridan yuqori o'ringa chiqqanini namoyon etadi. Yerzikov (2024) va "Daryo" (2024) Germaniya Kanslerining O'zbekistonga yuqori darajadagi tashriflari va qabul qilinga hujjatlar haqida ma'lumot beradi. "Yuz.uz" va "Kun.uz" saytlari Yevropa Ittifoqida O'zbekiston uchun eng muhim iqtisodiy aloqalar Germaniya hissasiga to'g'ri kelishini va ikki tomonlama ta'lim, sog'liqni saqlash, ishlab chiqarish, savdo sohalaridagi shartnomalar haqida ma'lumot beradi. "Review.uz" va Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi davlatlar o'rtasidagi savdo aylanmasi, import, eksport, investitsiya loyihalarini muhokama qiladi. Umuman olganda, tadqiqot va manbalar iqtisodiy islohotlar, diplomatik aloqalar va xalqaro investitsiyalarning oshishi natijasida O'zbekiston va Germaniyaning hamkorligi yangi pog'onaga chiqqanini ko'rsatib berdi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot diplomatik hujjatlar va hisobotlarda berilgan ma'lumotlar asosida savdo va investitsiya ma'lumotlarini tahlil qilishda turli usullarni qo'llaydi. Tadqiqot jarayoni ikki asosiy qismdan: ma'lumot yig'ish va ma'lumotlarni tahlil qilishdan iborat.

Bir nechta manbalar, jumladan, akademik jurnallar (masalan, Mamatqulova, 2024), nufuzli axborot agentliklari (McCurry, 2024; Yerzikov, 2024; Daryo, 2024; Kun.uz, 2023) va GFRning tashqi ma'lumotlar ombori (The Federal Conservicity of Germany) tahlil uchun muhim va eng zarur ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ikki tomonlama iqtisodiy faoliyatdagi so'ngi o'zgarishlarni aks ettirish uchun "Review.uz" va Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazidan tegishli infografika va hisobotlar o'rganilgan.

Diplomatik tashriflar, siyosiy islohotlar va investitsiya tashabbuslari yillar kesimida infografikada aks ettirildi. "Yuqori darajadagi diplomatik hamkorlik", "Investitsion kelishuvlar" va savdoning o'sishi ma'lumotlar tahlilida ko'rsatilgan. Ikki tomonlama umumiy savdoda yillik import va eksport hajmlari o'zgarishi va ularning miqdorlari mos ravishda tasvirlangan va kerakli mulohazalar orqali xulosalar berilgan. Iqtisodiy hamkorlik jarayonida erishilgan yutuqlar va natijalar haqida qiyosiy tahlillar berilgan va kelajakda integratsiyatlashuv jarayonini tezlashtirish mumkin bo'lgan ehtimoliy imkoniyatlar va tavsiyalar sanab o'tilgan.


Ushbu metodologiya O'zbekiston–Germaniya iqtisodiy munosabatlarning hozirgi holati va kelajakdagi salohiyatini baholash imkonini beruvchi iqtisodiy tahlili ko'rsatibgina qolmay, empirik savdo ma'lumotlarini ishonchli tekshirishni ham ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston va Germaniya ikki tomonlama diplomatik aloqalari yillar kesimida

1991-yil 31-dekabrda Germaniya Federativ Respublikasi O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini rasman tan oldi. 1992-yil 6-martda rasmiy diplomatik munosabatlar o'rnatildi. 1993-yilda Germaniyaning Toshkentda elchixonasi ochildi, shu yilning o'zida O'zbekiston Berlinda o'z elchixonasini ochdi. 1995-yilda savdo va sarmoyaga qaratilgan dastlabki iqtisodiy

bitimlar imzolandi. 1995-yil may oyida esa Germaniya Federal Iqtisodiyot vazirligi bilan hamkorlikda savdo va investitsiya bo'yicha doimiy faoliyat yurituvchi O'zbekiston–Germaniya ishchi guruhi tuzildi. Ishchi guruhning ikki davlat ishbilarmon doiralari vakillari ishtirokida o'tayotgan yig'ilishlarida ikki davlatning iqtisodiy rivojlanishiga doir masalalari, ikki tomonlama savdo-iqtisodiy munosabatlarning holati va qo'shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonining borishi va boshqalar muhokama qilingan va savdo bitimlari imzolangan (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston va Germaniya davlatlari o'rtasidagi diplomatik aloqalar yillar kesimida

1999-yilda Gyote Instituti O'zbekistonda nemis tilini o'rgatish va madaniy almashinuvni qo'llab-quvvatlash maqsadida faoliyatini boshladi. Hozirgi kunda ham Gyote Instituti yiliga minglab til ixlosmandlariga ta'lim berib kelyapti. 2005-yilda O'zbekiston hududida bo'lib o'tgan voqealar Germaniya va O'zbekiston diplomatik aloqalarga salbiy ta'sir qildi, ko'plab bitimlar bekor qilindi. 2009-yildan xavfsizlik sohasidagi hamkorlik faollashdi. Germaniya Afg'onistondagi operatsiyalarini tashkil etishda Termiz poligonlaridan faol foydalana boshladi, shuningdek, milliy xavfsizlik va harbiy sohada hamkorlik chuqurlashdi (Daryo.uz, 2024).

2019-yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Germaniyaga ilk rasmiy tashrifi chog'ida ikki davlat o'rtasida umumiy qiymati 4 milliard yevrodan ortiq bo'lgan 58 ta loyiha imzolangan. Shuningdek, savdo hajmini yiliga 1 milliard yevroga yetkazish maqsadi belgilangan. Bundan tashqari, mintaqaviy integratsiya va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadida "Germaniya–Markaziy Osiyo" formatida muloqot maydoni tashkil etildi. Shundan so'ng, ikki davlat o'rtasida "Investitsiyalarni himoya qilish", "Ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish", "Moliyaviy va texnik hamkorlik" va boshqa bitimlar imzolandi. 2022-yilga kelib O'zbekiston Yevropa Ittifoqi bilan "Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim"ni imzoladi. Ushbu bitim Yevropa Ittifoqi, ayniqsa Germaniya bilan energetika, transport, iqlim o'zgarishi, raqamli iqtisodiyot va qishloq xo'jaligi kabi sohalarda hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan (Yerzikov, 2024).

2023-yil 2-3-may kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Germaniyaga tashrifi chog'ida ko'p qirrali hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan deklaratsiya imzolandi. Tashrif chog'ida Markaziy Osiyo va Yevropani bog'laydigan Trans-Kaspiy yo'lagini rivojlantirish loyihasi alohida ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, O'zbekiston delegatsiyasi Germaniyaning Siemens Energy, Deutsche Bank, Commerzbank, CLAAS va boshqa yirik kompaniya rahbarlari bilan uchrashuv o'tkazishdi (yuz.uz, n.d.). Biznes forum yakuni bo'yicha yashil energetika, transport infratuzilmasi, metallurgiya, suv ta'minoti, qishloq xo'jaligi, kimyoviy moddalar, konchilik, avtomobilsozlik, to'qimachilik, elektrotexnika

sohalarda umumiy qiymati 9 milliard yevrolik kelishuvga erishildi. Bundan tashqarim Germaniyaning Deutsche Bank va KfW Bank kabi yirik banklari loyihalarni moliyalashtirish orqali bank va moliya sohasida hamkorlikni kengaytirish rejalarini ishlab chiqishdi. Tashrif yakunida 16 ta hukumatlararo va idoralararo iqtisodiyot, savdo, moliya, fan-ta'lim, innovatsiyalar yo'nalishida bitimlar imzolandi (kun.uz, 2023).


2024-yil 15-sentabr kuni Germaniya Federal Respublikasining Kansleri Olaf Shols Markaziy Osiyoga ilk tashrifini Samarqand shahridan boshladi. Oliy darajadagi muzokarlarda mehnat migratsiyasi sohasida talab yuqori bo'lgan sohalarda o'zbekistonlik mutaxassislarini kasbiy tayyorlash va ishga qabul qilish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqarish taklifi berildi. O'zbekistonda dual ta'limning nemis modelini joriy etish, yetakchi universitetlar o'rtasida ta'lim va ilmiy almashinuvni rivojlantirish maqsadida ikki davlat universitetlari forumini tashkil etish takliflari kiritildi. Muzokaralar so'ngida migratsiya va mobillik, veterinariya va chorvachilik, suv resurslari, foydali qazilmalar, transport, iqlim o'zgarishlari sohasida 8 ta ikki tomonlama hujjatlar imzolangan. Shuningdek, 2024-2026-yillarga mo'ljallangan texnologik sheriklik va sanoat kooperatsiyasi dasturi qabul qilingan (News Central Asia, 2024).

Germaniya Federal Respublikasi O'zbekistonning eng yirik 10 savdo hamkori qatoriga kiradi, umumiy savdo aylanmasi bo'yicha 7-o'rin, import bo'yicha esa 6-o'rinni egallaydi. 2016-2023-yillarda O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi ikki barobarga ko'payib, 2016-yildagi 529,1 million dollardan 2023-yilda 1,1 milliard dollarga yetdi. Shu davrda eksport hajmi 2,4 barobarga, 36,9 million dollardan 87 million dollarga yetdi, import hajmi ham 492,2 million dollarga o'sdi. Germaniyaning O'zbekistonning umumiy savdo aylanmasidagi ulushi 2,2 foizdan 1,7 foizga qisqardi. Biroq uning eksportdagi ulushi 0,3 foizdan 0,4 foizga oshgan (Review.uz, n.d.).

Germaniya O'zbekiston savdo importining asosiy qismini, mamlakat iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan mashinalar, uskunalar, transport vositalari va boshqa sanoat mahsulotlarini yetkazib beradi. Eksportda asosan to'qimachilik mahsulotlari 29%, rangli metallar 21%, oziq-ovqat mahsulotlari 8%, kimyo mahsulotlari 3%, xizmatlar 39% tashkil etdi. Importda 50% ni mashinalar, asbob-uskunalar va transport vositalari, 14% sanoat tovarlari, 12% farmatsevtika mahsulotlari, 12% kimyo va plastmassa buyumlari, 7% xizmatlar ko'rsatish tashkil etdi. Shuningdek, 2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, O'zbekistonda nemis investorlari ishtirokidagi 276 ta korxona faoliyat ko'rsatmoqda, jumladan, 57 ta yangi korxonalar 2024-yildan boshlab faoliyat yurityapti.

2023-yilda Germaniyaning O'zbekistonga kiritgan sarmoyalari va kreditlari 757,8 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning birinchi yarmida bu ko'rsatkich 577,7 million dollarga yetdi. Germaniyadan O'zbekistonga to'plangan investitsiyalar va kreditlarning umumiy hajmi 4,5 milliard dollardan oshdi. Germaniya sarmoyalari birinchi navbatda ishlab chiqarish sektoriga, xususan, to'qimachilik, kimyo va metall bo'lmagan foydali qazilmalarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. Boshqa asosiy sarmoya sohalari qatoriga qurilish, tog'-kon sanoati, savdo va avtomobilsozlik kiradi. Germaniya va O'zbekiston o'rtasida "Investitsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilish" to'g'risida kelishuv, "Eng yaxshi ko'rilgan millat mamlakat o'rtasidagi savdo tartibi", "Ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish" to'g'risidagi bitimlar imzolandi (2-rasm).


2016-yilda O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi savdo aylanmasi 529,1 million dollarni tashkil etgan, shundan 492,2 million dollari, ya'ni 93%i import xissasiga, qolgan 36,9 million dollar eksport xissasiga to'g'ri kelgan (Center,2024). 2020-yilda ikki mamlakatning savdo aylanmasi 16,5% ga kamaygan, bu esa importning 168,1 million dollarga tushish fonida ro'y bergan. 2022-yilga kelib, import 1070,4 million dollarni tashkil etgan, bu esa 2016-yilga nisbatan 117,5% ga ko'p degani.



2-rasm. O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi mahsulot va xizmatlar savdo aylanmasi

Eksport hajmi ham 141% ga o'sib, 88,9 million dollarni tashkil etgan. Yil oxiriga kelib, umumiy savdo aylanmasi 1159,3 million dollarga yetgan. Faqat shu davrning oxirida, ya'ni 2022-yilga kelib, umumiy mahsulot, xizmatlar aylanmasi va import 1 milliard dollardan oshgan. Bu esa Germaniyaning O'zbekiston uchun savdo aylanmasi bo'yicha 7-yirik davlat ekanligi, mahsulot va xizmatlarning importi bo'yicha savdo hamkorlari orasida 6-o'rinda ekanligini ko'rsatdi (3-rasm).

SAVDO AYLANMASI



3-rasm. Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi savdo aylanmasi 2016-2022-yillar

Ikki davlat munosabatlarning rivojlantirish imkoniyatlari

O'zbekiston Germaniyaga eksport qiladigan mahsulotlar orasida to'qimachilik mahsulotlari (12,7 million dollar), choyshablar (4,29 million dollar), qishloq xo'jaligi mahsulotlari, molibden (15,1 million dollar), mis (2,8 million dollar), va xizmatlar kiradi. Sanab o'tilgan mahsulot va servislarni Germaniyaga eksportini karrasiga oshirish imkoniyati mavjud:

1. Ekologik toza tolalardan Germaniya madaniyatiga va trendiga mos bo'lgan to'qimachilik mahsulotlarini turini kengaytirish va organik sertifikatlangan mahsulotlar kataloglarni yaratish lozim.

2. Poliz mahsulotlari, mevalar, yong'oq, murabbolar, quritilgan mevalar, shuningdek, alohida sertifikatlangan va yaroqlilik muddati uzoq davom etadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talabni O'zbekistondan eksport qilish orqali qondirish mumkin.

3. Qayta tiklanadigan energiya va texnologiyalar ishlab chiqarish uchun talab etiladigan molibden, mis, uran, oltin va boshqa qimmatbaho metallar eksportini kengaytirish va uzoq muddatlik shartnomalar tuzish lozim.

4. Strategik ahamiyatga ega bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini, ya'ni quyosh panellari, turbinalar, batareya va boshqa texnologiyalarni O'zbekistonda birgalikda ishlab chiqarish, nafaqat ishki talabni qondirish, balki boshqa davlatlarga eksport qilish salohiyatini yaratish mumkin.

5. Axborot texnologiyalari (IT) sohasida dasturiy ta'minot, dizayn, sun'iy intellekt yo'nalishida masofaviy ravishda Germaniyaga xizmatlar soni va sifatini yaxshilash uchun umumiy platforma yaratish ikki tomonlama aloqalarda yangi bosqichga chiqaradi.

6. Germaniyada inson resurslariga bo'lgan talabni qondirish maqsadida, O'zbekistonda kasbiy tayyorgarlik va til ko'nikmalarini beradigan dasturlar sonini oshirish, dual ta'lim loyihalarini kengaytirish va migratsiya sohasida kelishuvlarga erishish ahamiyati yildan yilga oshib bormoqda.

7. O'zbekiston va Germaniya o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri parvozlar sonini oshirish, tur paketlar soni va sifatini takomillashtirish, O'zbekistonning asosiy turistik shaharlarida nemis turizm markazlarini ochish, Germaniya bilan bog'lik tarixiy va madaniy manzillarni keng targ'ib qilish zarur.

8. Yashil energatika, tog'-kon sanoati, raqamlashtirish kabi ustuvor yo'nalishlarda ikki tomonlama shartnomalarni kengaytirish imkoniyati mavjud. Hozirgi kunda Germaniyaning Siemens Energy kompaniyasi elektr standiyalarni qurishni boshlagan, Linde Group esa kimyoviy korxonalar infratuzilmasini va sanoat loyihalari kengaytirish imkoniyatlarini ta'kidlaydi.

9. Germaniya—O'zbekiston biznes uchrashuvlar sonini ko'paytirish, bir yil davomida dastlab Germaniya, so'ng O'zbekistonda uchrashuvlar o'tkazish biznes yuritish va investitsiya hajmini oshishiga yordam beradi. Bu uchrashuvlarda O'zbekistonning maxsus iqtisodiy zonalarida qanday imkoniyat va qulayliklar borligi haqida to'laqonli tanishtirish mumkin bo'ladi.

10. Diplomatik sohasida doimiy aloqalarni yo'lga qo'yish, vazirlar, hukumat rahbarlari o'rtasida doimiy muloqot va uchrashuvlarni tashkil etish, Afg'oniston masalasida birgalikda qarorlar qabul qilish juda muhim.

11. Qishloq xo'jaligi, samarali sug'orish, bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha Germaniya tajribasini o'rganish va tadbiq ekish ikki tomonlama aloqalarni doimiylikni ta'minlaydi va O'zbekiston uchun suv resurslarini tejashga yordam beradi.

12. O'zbekistondagi maktab, kasb hunar dargohlarida nemis tilini dasturlarini kengaytirish, Germaniya universitetlarning filliallarini ochish, o'zbek talabalari uchun grantlar va stipendiyalar sonini oshirish integratsiya jarayonini tezlashtiradi.

13. O'zbekiston va Germaniyada madaniy sohada aloqalarni kengaytirish borasida nemis manadiyati festivallar sonini ko'paytirish, O'zbekistonning etnik nemis hamjamiyatida

ularning milliy an'ana va urf-odatlarini saqlab qolish maqsadida ko'plab tadbirlar uyushtirish zarur.

14. O'zbekistonda "Germaniya–Markaziy Osiyo" sammitini o'tkazish lozim. 2026-yilda "Germaniya–O'zbekiston madaniyati yili"ni o'tkazish va keng qamrovda nishonlash yana bir aloqalarni mustahkamlaydigan qadam hisoblanadi.

15. "Yashil Innovatsiyalar Jamg'armasi"ni yo'lga qo'yish orqali ko'plab ikki tomonlama innovatsiyalar va texnologik loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatini kengaytiradi va sifat jihatidan ularni yaxshilaydi.

16. Germaniyada talablariga javob beradigan va Yevropa Ittifoqi hududida ham eksport jarayonini tartibga soladigan xalqaro sertifikatlash tartibini O'zbekistonda yo'lga qo'yish va o'zbek tadbirkorlariga faol ravishda targ'ib qilish va rag'batlantirish tamoyillarini ishlab chiqish yana bir imkoniyat hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosati – savdoni liberallashtirish, takomillashgan diplomatik aloqalar va faol xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyasi mamlakatni jahon iqtisodiyotida o'rnini mustahkamladi. 1991-yil 31-dekabr kuni O'zbekiston mustaqilligi tan olingandan beri Germaniya bilan ikki tomonlama munosabatlar doimiy ravishda rivojlanib bordi. Bu esa 1993-yilda ikki davlat elchixonalarini tashkil etilishi va 1995-yilda dastlabki iqtisodiy bitimlar imzolanishi bilan davom etdi. 2024-yil sentabrda Germaniya Federal Respublikasi Kansleri Olaf Sholsning yuqori darajadagi tashrifi davomida investitsiya va savdo hajmini oshirish bo'yicha hujjatlar imzolandi. Uchrashuv davomida 2016-2023-yillar oralig'ida integratsiya jarayoni tezlashganligi e'tirof etildi.

Ko'plab kelishuvlarning amaliy natijalariga qaralganda, ikki davlatning diplomatik natijalari mustahkam hamkorlik va islohotlarga asoslangan savdo siyosatini barqaror rivojlantirish kerakligini aks ettiradi. Germaniyaning ishonchli iqtisodiy hamkor sifatida paydo bo'lishi – o'zining texnologik kuchi va yetakchi investor sifatidagi roli bilan mustahkamlanib kelmoqda. Biroq, savdodagi tafovut va tartibga solishning uyg'unlashtirish zarurati kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Bu esa o'z navbatida joriy aloqalar bilan sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, hamkorlikni barqarorlashtirish va integratsiyaga erishish yo'lida yangi imkoniyatlardan foydalanish zarur ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ikki davlat o'rtasida hali amalga oshmagan lohiyalarga e'tibor qaratish zarur. Iqtisodiy, ijtimoiy, moliya va boshqa muhim sohalarda yangi tashabbuslarni kengaytirish ushbu ikki tomonlama yutuqlarni yanada mustahkamlab, tobora integratsiyalashgan global iqtisodiyotda o'zaro manfaatli kelishuvlarga yo'l ochib beradi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Center for Economic Research and Reforms. (2024). *Infographics: trade, economic and investment cooperation between Uzbekistan and Germany*. Review.uz. <https://review.uz/en/post/infografika-torgovo-ekonomicheskoe-i-investicionnoe-sotrudnichestvo-mejdu-uzbekistanom-i-germaniey>

Daryo. (2024). *Olaf Scholz's historic visit: What Germany seeks from Uzbekistan*. Daryo. <https://daryo.uz/en/2024/09/17/olaf-scholz-historic-visit-what-germany-seeks-frouzbekistan>

Federal Foreign Office of Germany. (n.d.). [Title of the article]. *Auswärtiges Amt*. Retrieved from <https://www.auswaertiges-amt.de/en/newsroom/news/2595054-2595054>

Kun.uz. (2023). *Uzbekistan, Germany sign grant agreements to support education and healthcare*. Kun.uz. Retrieved from <https://kun.uz/en/news/2023/11/13/uzbekistan-germany-sign-grant-agreements-to-support-education-and-healthcare>

Mamatkulova, S. S. (2024). *Trade, economic and investment cooperation between Uzbekistan and Germany*. [Journal Name], 2(4), 146–150. ISSN (E): 2994-9521.

McCurry, J. (2024). *Japan falls into recession as its economy slips behind Germany*.

News Central Asia. (2024). The German chancellor and the president of Uzbekistan met in Samarkand: A package of documents signed, Germany and Uzbekistan are working on projects worth 9 billion euros. News Central Asia.

Review.uz. (n.d.). Infographic: Trade, economic, and investment cooperation between Uzbekistan and Germany. Review.uz. Retrieved from <https://review.uz/en/post/infografika-torgovo-ekonomicheskoe-i-investicionnoe-sotrudnichestvo-mejdu-uzbekistanom-i-germaniy>

The Observatory of Economic Complexity. (n.d.). Germany – Uzbekistan. Retrieved February 17, 2025, from <https://oec.world/en/profile/bilateral-country/deu/partner/uzb>

Yerzikov, V. (2024). Olaf Scholz O'zbekistonga keladi. Kursiv Media. <https://uz.kursiv.media/uz/2024-09-14/olaf-shols-ozbekistonga-keladi>

Yuz.uz. (n.d.). Германия – главный экономический партнер Узбекистана в ЕС. Yuz.uz. Retrieved from <https://yuz.uz/ru/news/germaniya---glavny-ekonomicheskiy-partner-uzbekistana-v-es>